



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**  
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир  
ўринбосари:**  
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**  
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**  
и.ф.д. Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

**Техник муҳаррир:**  
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**  
PhD С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**  
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**  
140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти в.б., DSc

**МУНДАРИЖА:**

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Амир Темурнинг одилона иқтисодий сиёсати – кудратли империянинг шаклланиш ва ривожлантириш омили	5
<b>Дилфуза Олимбоевна Матёкубова</b> Бизнес тузилмаларини инновацион ривожлантириш учун диверсификация стратегиясини танлаш истиқболларини баҳолаш тартиби ва усуллари	12
<b>G‘ayrat Zuvaytovich Ubaydullaev</b> Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish inson kapitali samaradorligini oshiradi	16
<b>Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva, Madina Isoqjonovna Oxunjonova</b> Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari	21
<b>РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева</b> Влияние инновационных процессов на экономическое развитие Республики Узбекистан: теоретические аспекты	26
<b>Omonilla Saydaminovich Umarov, Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev</b> Iqtisodiy xavfsizlikini ta’minlashda ochiq ma’lumotlar sohasining ahamiyati	31
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Рузибой Нормухаматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов</b> Мева-сабзавотларда бўладиган нитратлардан келадиган хавфлар ва уларнинг олдини олиш йўллари	35
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева, Умида Равшановна Равшанова</b> Теоретические аспекты занятости в сельском хозяйстве и их влияние на развитие экономики Республики Узбекистан	38
<b>Сусанна Сейрановна Алиева</b> Солнечная энергетика в тепличном хозяйстве	44
<b>Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li Usubjonov</b> Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi	49
<b>Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li Turg‘unov</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish masalalari	55
<b>Абдухолик Эгамович Тангиров</b> Чўл-яйлов чорвачилиги хўжаликлари ва уларни бошқаришдаги айрим муаммолар	58
<b>Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li Xomidov</b> O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik korxonalarida sanoat kooperatsiyasini tashkil etish va foydalanishning iqtisodiy ahamiyati	62
<b>Xakim Toshimovich Buriyev</b> Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslari	66
<b>МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ</b>	
<b>Саидахроп Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ўзбекистонда таълим самарадорлигини ошириш ва камбағалликни қисқартириш бўйича айрим тавсиялар	72
<b>Обид Мамаюнусович Пардаев</b> Кўп ўлчовли камбағалликни аниқлашнинг янги индикаторлари ва уларнинг моҳияти	78

Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li Xomidov – Farg‘ona politexnika instituti tayanch doktoranti

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AVTOMOBILSOZLIK KORXONALARIDA SANOAT KOOPERATSIYASINI TASHKIL ETISH VA FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Sanoat kooperatsiyasi dunyo iqtisodiy muhitiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, iqtisodiy tashabbuslarning samaradorligi va natijadorligiga ta‘sir qiladi. Ushbu maqolada sanoat kooperatsiyasining turli jihatlari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri tahlil qilindi. Tadqiqot sanoat kooperatsiyasining innovatsiya ekotizimlarini qanday rivojlantirishi, texnologiyalarni kengaytirishi va resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlashi hamda turli xil kooperatsiya shakllari haqidagi mulohazalar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** sanoat kooperatsiyasi, hamkorlik, avtomobil klasteri, texnologik parklar, kaizen tizimi, kichik biznes, eksport, ishlab chiqarish infratuzilmasi, venchur kapital, kichik sanoat korxonalar, klaster, metodologiya.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik sanoati keyingi yillarda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib, jadal rivojlanmoqda. Avtomobilsozlik sohasidagi muvaffaqiyatlar O‘zbekistonning sanoat salohiyatini oshirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, sohada sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘yish va xorijiy tajribadan samarali foydalanish iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda jahon avtomobilsozlik bozorida raqobat kuchayib, texnologik innovatsiyalar va ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda sanoat kooperatsiyasi, ya‘ni turli kompaniyalar va davlatlar o‘rtasida ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida hamkorlik qilish, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarning avtomobilsozlik sanoatida muvaffaqiyat qozonishi, ko‘p jihatdan, sanoat kooperatsiyasiga asoslangan. Ushbu davlatlar o‘zaro kooperatsiya orqali resurslarni birlashtirib, yangi texnologiyalarni joriy qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati rivojlanish bosqichida bo‘lib, xorijiy tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali bu sohada yuqori natijalarga erishishi mumkin. Ayniqsa, xalqaro kooperatsiya asosida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish, avtomobil qismlarini tayyorlashda xorijiy korxonalar bilan sanoati kooperatsiyasini tashkil qilish hamda ilg‘or texnologiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhimdir. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish orqali O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati jahon miqyosidagi raqobatbardoshlikka erishishi mumkin.

Maqolada sanoat kooperatsiyasini tashkil etish va xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik sanoatida ushbu yondashuvni qo‘llashning istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribadan kelib chiqib, avtomobilsozlik korxonalarining texnologik yangiliklarni joriy qilishda va raqobatbardoshlikni oshirishda qanday muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkinligi yoritiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Biroq, sanoat kooperatsiyasi uzoq muddatli jarayon ekanligini va beqaror muvozanat, garchi u foydali bo‘lsa ham, zamonaviy dunyoda sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish uchun yetarli emasligini hisobga olsak, J.F.Nesh nazariyasi tomonidan belgilangan muvozanat holati tadqiqot mezonlarini to‘liq qondirmaydi. Sanoat kooperatsiyasining amaldagi tizimiga nisbatan. Tomas Shelling ijtimoiy fanlarni o‘rganish va birlashtirish uchun o‘z tadqiqotlari uchun asos sifatida o‘yin nazariyasidan foydalangan.


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarining rivojlanishi mamlakatimiz va boshqa xalqlarning ko‘plab olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, xorijlik olimlar R.Ouen, U.King, Ye. Norson,

F.Raiffeisen, A.Sapiro, C.Fure va boshqalar hamkorlikning fundamental g‘oyalari va metodologik jihatlarini tadqiq qildilar[1].

Bundan tashqari, M.N. Tugan-Baranovskiy, N.D.Kondratev, A.V.Chayanov, N.P. Makarov va I.V. MDH davlatlaridan Yemelyanov sanoatda kooperatsiya nazariyasi, uning iqtisodiy va tashkiliy asoslari, ijtimoiy jihatlar va ishlab chiqarish kooperatsiyasining konseptual asoslarini o‘rgandi. Xorijiy tajribalar sanoat kooperatsiyasida texnologik innovatsiyalarni integratsiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotlarda ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari, masalan, avtomatlashtirish, robototexnika va raqamlashtirish, zamonaviy avtomobil ishlab chiqarishning markaziy elementi sifatida qayd etiladi. Masalan, AQShda joylashgan Ford kompaniyasining Rouge Complex zavodi robototexnika va sun‘iy intellektga asoslangan jarayonlarni integratsiyalash orqali samaradorlik va mahsulot sifatini sezilarli darajada yaxshilagan muvaffaqiyatli misol sifatida ko‘rsatiladi (Smith, 2020). AQSHning Ford Kentucky Truck Plant zavodi tomonidan Industry 4.0 texnologiyalarini, jumladan, IoT va katta ma‘lumotlar tahlilini qo‘llash natijasida ishlab chiqarish hajmi 25% ga oshgani kuzatilgan (Johnson & Lee, 2021)[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Avtomobilsozlik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarishda korxonaning raqobatbardoshligini baholashning turli usullari qo‘llaniladi, ular orasida eng ko‘p ishlatiladigan usullar quyidagilar: afzalliklar usuli, integral baholash usuli, raqobatbardoshlikni grafik usuli, nuqtaviy baholash usuli, tarkibiy, funksional va matritsa usullari.[3]

**Tahlil va natijalar.** Ushbu tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2012-2021-yillar davomida YaIM miqdoriga mutanosib ravishda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning oshib borgan bolsa avtomobilsozlik mahsulotlarining ulushi turlicha dinamikani qayd etgan. Misol uchun 2017-2020-yillar oralig‘ida avtomobilsozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘tib borgan bolsa pandemiya davriga kelib 2021-yilda pasayish kuzatilgan va so‘nggi ikki yilda yana yuqorilash tendensiyasida mustahkam o‘rnashgan. Xususan so‘nggi 2022-yilda qariyb 50% foizdan yuqori siljish ro‘y bergan bolsa, 2023-yilda avvalgi raqamlarga qaraganda yaqin 40% atrofida rivojlanish kuzatilgan.



**1-rasm. Avtomobilsozlik sanoati ulushi hamda o‘shish sur‘ati to‘g‘risida ma‘lumot (foizda)<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Sanoat ishlab chiqarish tizimida avtomobilsozlik mahsulotlarini ihslab chiqarish o‘shir sur‘ati ham 2012-yilga nisbatan 2023-yilda 1,01 foizga ortgan.

Bundan tashqari tahlil amalga oshirilayotgan davrda avtomobilsozlik sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi qiymat jihatidan ortib borgan bo‘lsa-da, 2017-yilga kelib qariyb 50% ga ulush pasayganini ko‘rish mumkin. 2018-2021-yillar mobaynida avtomobilsozlik sanoati o‘rtaacha 8% atrofida o‘shir sur‘atlarini qayd etgan bolsa-da pandemiya va unda keyindi davr istemolchilar tanloviga ta‘sir ko‘rsatganini 2022-yilda o‘shir sur‘atini 11.8% dan 9% ga tushishida ko‘rish mumkin. Bundan tashqari 2012-2021-yillar davomida mos ravishda 8,1 % dan 7,2 %ga kamayishni kuzatish mumkin.

O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarishda sanoat kooperatsiyasini tashkil etish mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu ta‘sirlar bir qancha jihatlarida namoyon bo‘ladi:

Sanoat kooperatsiyasi orqali xorijiy hamkorlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatilishi natijasida, ilg‘or texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini O‘zbekistonga olib kirish imkoniyati oshadi. Masalan, avtomobilsozlik sanoatida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish jarayonlari, robototexnika, avtomatlashtirish va raqamlashtirishni joriy etish orqali mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish mumkin bo‘ladi[4]. Shuning natijasida O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib bormoqda. 2023-yilda mamlakatda umumiy hisobda **350 ming dona** avtomobil ishlab chiqarildi. Bu raqam **2022-yilda** ishlab chiqarilgan **300 ming dona** avtomobildan **17%** ga ko‘proqdir. Bu ko‘rsatkichlar sanoat kooperatsiyasi va xorijiy texnologiyalardan foydalanish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi ortganini ko‘rsatadi[5].

Bu O‘zbekistonning avtomobil mahsulotlarini xalqaro bozorda raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyatga ega. Sanoat kooperatsiyasi, xususan, xalqaro yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish orqali O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan komponentlarni barqaror va samarali yetkazib berish tizimini shakllantirishga yordam beradi.



**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida yengil avtomobillar exporti va importi<sup>1</sup>**

Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. "Just-In-Time" (JIT) kabi zamonaviy ishlab chiqarish tizimlaridan foydalanish orqali zaxira xarajatlarini minimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tezkorlashtirish imkoniyatlari oshadi[6]. Sanoat kooperatsiyasi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston avtomobilsozlik sohasiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. 2021-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda, mamlakat avtomobilsozlik sanoatiga **1 milliard AQSH dollaridan** ortiq xorijiy investitsiyalar kiritildi. Bu

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.

investitsiyalar yangi ishlab chiqarish liniyalarini ochish va mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun sarflandi.

Yirik xalqaro avtomobil kompaniyalari bilan hamkorlik o‘rnatilishi orqali O‘zbekistonga zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, tajribali mutaxassislar va yangi bozor imkoniyatlari kirib kelishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, mamlakat avtomobilsozlik sanoatining yanada rivojlanishiga va yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi[7].

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda avtomobilga bolgan ehtiyoj borgan sari ortib bormoqda. Mamlakatimiz avtomobil eksporti hamda importi muhim ahamiyatga ega. Yuqorida biz O‘zbekiston Respublikasida yengil avtomobillar eksporti hamda importi korsatkichlarini ko‘rishimiz mumkin. Unga ko‘ra eksport miqdorida ham import miqdorida ham bir qancha turli o‘zgarishlarni boshdan kechirgan.

Yengil avtomobillar transporti 2011-yilda 722.3 ozining cho‘qqisiga chiqqan ammo 2022-yilga kelib uning juda past korsatkichlarda ekanligini korishimiz mumkin(7.6).2010-yildan 2014-yilgacha avtomobil eksporti ozining eng yaxshi davrlari bolgan deyishimiz mumkin. Keyingi yillarda past ko‘rsatkichlar qaytd etib kelmoqda. Avtomobil importiga nazar tashlaydigan bolsak eksport miqdori korsatkichlarini aksini ko‘rishimiz mumkin. Berilgan davr boshida eng past ko‘rsatkich qayd etilgan yani 2010- yilda 116.8 bir qancha o‘shish tushishlarga qaramay 2022-yilga kelib 778.5 ni qayd etgan. Umumiy qilib qaraganda import miqdori doimiy o‘shib kelmoqda. O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatida mahsulotlar mahalliyashtirish darajasi ham oshmoqda. 2023 yilda ishlab chiqarilgan avtomobillarning **60%** dan ortig‘i mahalliyashtirilgan komponentlardan tashkil topgan. Bu ko‘rsatkich sanoat kooperatsiyasi doirasida mahalliy yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikning mustahkamlanishiga asoslanadi.

Sanoat kooperatsiyasi doirasida, O‘zbekiston "Chevrolet" va "Ravon" brendi ostida yuqori texnologiyali avtomobillar ishlab chiqarishni davom ettirmoqda. Misol uchun, **2021-yilda** "UzAuto Motors" va Janubiy Koreyaning "General Motors Korea" o‘rtasida tuzilgan kelishuv asosida yangi texnologiyalarni joriy qilish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi **20%** ga oshdi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu raqamlar O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatida sanoat kooperatsiyasi orqali erishilgan yutuqlar va iqtisodiy ta’sirlar haqida tasavvur beradi. Bu kooperatsiya mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda, yangi texnologiyalarni jalb qilishda va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi[8]. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berish soha rivojiga ijobiy ta’sir etadi.

- korxonalar o‘rtasida strategik hamkorlikni kuchaytirish uchun hukumat tomonidan maxsus dasturlar va grantlar joriy etish;

- sanoat kooperatsiyasi jarayonida ishtirok etuvchi korxonalarga soliq imtiyozlari va boshqa rag‘batlantirish choralarini qo‘llash;

- mahalliy va xalqaro bozorlar uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatini oshirish maqsadida texnologik va ilmiy-tadqiqot hamkorliklarini rivojlantirish;

- mintaqalarda kooperatsiya orqali infratuzilma rivojlanishini jadallashtirish;

- energiya tejovchi va ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarda kooperatsiya orqali innovatsion yechimlarni tezroq joriy etish;

O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va global ta’minot zanjirlariga yanada chuqurroq integratsiyalashishdir. Bu yondashuv mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda va global bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli raqobatlashish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Smith, J. (2020). How Ford is Driving the Future of Manufacturing. IndustryWeek. Retrieved from <https://www.industryweek.com/technology-and-iiot/article/22028609/how-ford-is-driving-the-future-of-manufacturing>

2. Johnson, M., & Lee, S. (2021). Industry 4.0: How Ford is Rethinking Its Approach to Manufacturing. Forbes. Retrieved from

<https://www.forbes.com/sites/stevennorton/2021/03/22/industry-40-how-ford-is-rethinking-its-approach-to-manufacturing/>

3. Anderson, P. (2019). United States Council for Automotive Research (USCAR). USCAR. Retrieved from <https://www.uscar.org>

4. Miller, A. (2017). The Evolution of Supply Chain Management Models and Methods. Harvard Business Review. Retrieved from <https://hbr.org/2017/07/the-evolution-of-supply-chain-management-models-and-methods>

5. Р. Оуэна, Ф. Райффайзена, У. Кинга. Русская школа кооперативной мысли (И.В. Емельянов, В.Ф. Тотомианц)

6. Xomidov M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), 56-64.

7. Xasanboy o‘g‘li, X. M. (2023). Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o‘rni. qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1, 69-72.

8. Khomidov, M. (2024). The Economic Importance of Industrial Cooperation and How It Affects the Pursuit of Economic Effectiveness. Bulletin of Science and Practice, 10(5), 471-480. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/102/61>

<p><b>М.Хомидов</b></p> <p><b>Экономическое значение создания и использования производственной кооперации на автомобильных предприятиях Республики Узбекистан</b></p> <p><b>Аннотация.</b> Промышленная кооперация оказывает значительное влияние на мировую экономическую среду, влияя на эффективность и результативность экономических инициатив. В этой статье были проанализированы различные аспекты промышленной кооперации и их влияние на экономическую эффективность. В исследовании представлены соображения о том, как промышленная кооперация развивает инновационные экосистемы, расширяет технологии и обеспечивает эффективное использование ресурсов, а также о различных формах кооперации.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> промышленная кооперация, кооперация, автомобильный кластер, технопарки, система кайдзен, малый бизнес, экспорт, производственная инфраструктура и венчурный капитал, малые промышленные предприятия, кластер, методология.</p>	<p><b>M.Khomidov</b></p> <p><b>Economic significance of the organization and use of industrial cooperation in the automotive enterprises of the Republic of Uzbekistan</b></p> <p><b>Abstract.</b> Industrial cooperation has a significant impact on the world economic environment and affects the efficiency and effectiveness of economic initiatives. In this article the various aspects of industrial cooperation and their impact on economic efficiency were analyzed. The study examines how industrial cooperation fosters innovation ecosystems, expands technology, and ensures efficient use of resources, as well as various forms of cooperation.</p> <p><b>Keywords:</b> industrial cooperation, cooperation, automobile cluster, technology parks, kaizen system, small business, export, production infrastructure and venture capital, small industrial enterprises, cluster, methodology.</p>
--	--

**Xakim Toshimovich Buriyev** – Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professor v.b., i.f.n.

**QURILISH SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY ASOSLARI**

**Annotasiya.** Ushbu maqola qurilish sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan. Maqolada qurilish sanoatida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish, korxonalarda bu yo‘nalishda raqobatda ustunlikka erishishning aniq strategiyasi, unga mos ravishda raqobatbardoshligini oshirish rejalari, sifat bo‘yicha raqobatbardoshlik modelining metodologik asoslarini yaratish, raqobatchilarga nisbatan sifat bo‘yicha yetakchilikni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** qurilish sanoati, sifat strategiyasi, sifat menejmenti tizimi, sifatni oshirish, metodologiya, raqobatbardoshlik, raqobatda ustunlik.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.